

TOURISM RESOURCES OF THE REPUBLIC OF CHINA AND EFFECTIVE WAYS OF UTILIZING THEM

Nabijonova Shohida

Tashkent State University of Oriental Studies Master's
Degree Department Department of tourism Specialization
in Hospitality and tourism 1st year Master's Degree student

Abstract. This scientific article analyzes the tourism resources of the People's Republic of China, including their natural and cultural components, spatial distribution, and economic significance. It examines state-level tourism management mechanisms, infrastructure development, digital transformation, and sustainable tourism principles as effective approaches to resource utilization. Based on China's experience, an integrated model for tourism resource management is proposed.

Keywords: tourism resources, sustainable tourism, cultural heritage, natural landscape, tourism policy, infrastructure, digital tourism.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Xitoy Xalq Respublikasining turistik resurslari, ularning tabiiy va madaniy tarkibi, hududiy joylashuvi hamda iqtisodiy ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. Turizmni davlat darajasida boshqarish mexanizmlari, infratuzilma rivoji, raqamlashtirish jarayonlari va barqaror turizm tamoyillari asosida resurslardan samarali foydalanish yo'llari yoritiladi. Tadqiqot natijasida Xitoy tajribasiga asoslangan turistik resurslarni boshqarishning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: turistik resurslar, barqaror turizm, madaniy meros, tabiiy landshaft, turizm siyosati, infratuzilma, raqamli turizm.

中文摘要. 本文综合分析了中华人民共和国的旅游资源，包括自然资源与文化资源的构成、空间分布及经济意义。文章探讨了国家层面的旅游管理机制、基础设施建设、数字化转型以及可持续旅游原则，并提出了基于中国经验的旅游资源综合管理模式。

关键词: 旅游资源，可持续旅游，文化遗产，自然景观，旅游政策，基础设施，数字旅游。

KIRISH. (Introduction). Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonida turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. Xitoy Xalq Respublikasi so‘nggi 30–40 yil ichida turizmni milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi. Boy tabiiy resurslar, ko‘p ming yillik tarixiy-madaniy meros va zamonaviy infratuzilma Xitoyni global turizm markaziga aylantirmoqda. Xitoy dunyoda:

- Eng ko‘p ichki turistlar oqimiga ega davlatlardan biri;
- Eng yirik turizm bozorlaridan biri;
- UNESCO meros obyektlari soni bo‘yicha yetakchi mamlakatlardan hisoblanadi.

Turizm sohasining jadal rivojlanishi Xitoy YAIM o‘shishiga, bandlik darajasining oshishiga va hududiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli turistik resurslardan samarali foydalanish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Turizm sohasining jadal rivojlanishi global iqtisodiy o‘shish, bandlikni ta’minlash va hududiy rivojlanishda muhim rol o‘ynamoqda. Xitoy dunyodagi eng yirik ichki turizm bozori hisoblanadi. Turistik resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va madaniy merosni saqlash nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasining turistik resurslarini tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini aniqlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Xitoyda turizm rivojlanayotgan soha bo‘lib, Xitoy iqtisodiyotining

muhim qismiga aylanib bormoqda. Islohotlar va ochiq siyosat boshlanganidan beri so'nggi bir necha o'n yilliklarda turizm sur'ati oshdi. Yangi boy o'rta sinfning paydo bo'lishi va Xitoy hukumati tomonidan harakatlanishga qo'yilgan cheklovlarning yumshatilishi bu sayohat bumini kuchaytirmoqda. Xitoy dunyodagi eng yirik sayyohlik bozorlaridan biriga aylandi. Euromonitor International ma'lumotlariga ko'ra, yaqin atrofdagi Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy o'sish va yuqori daromadlar Xitoyga 2030-yilga kelib dunyodagi birinchi raqamli sayyohlik maskaniga aylanishga yordam beradi[1]. Xitoy Xalq Respublikasida turizm sohasining shakllanishi va rivojlanishi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'liq holda kechgan murakkab jarayon hisoblanadi.

XXRda turizm resurslari ikki asosiy guruhga bo'linadi: tabiiy (tog'lar, daryolar, milliy bog'lar) va madaniy-historik (Qadimgi shaharlar, tarixiy yodgorliklar, urf-odatlar). Biroq, bu resurslardan foydalanishda ayrim hududlar samaradorligi past bo'lishi, ekotizim va meros obyektlariga zarar yetishi kabi muammolar mavjud. Shu sababli, turizm resurslarini barqaror va samarali boshqarish strategiyalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy turistik resurslar: Xitoy hududi tabiiy xilma-xilligi bilan ajralib turadi:

- Great Wall of China – global tarixiy obyekt.
- Zhangjiajie National Forest Park – noyob geologik shakllanish.
- Guilin – karst tog'lari va daryo landshaftlari.
- Jiuzhaigou Valley – biosfera hududi.

Madaniy-tarixiy resurslar:

- Forbidden City
- Terracotta Army
- Temple of Heaven
- Summer Palace

Shuningdek, an'anaviy san'at, milliy festivallar va tarixiy shaharlar turizm salohiyatini oshiradi. Xitoy Xalq respublikasi turistik resurslardan samamarali foydalanishda turli xil yo'llardan foydalanadi. Xususan, davlat siyosati- Xitoy hukumati turizmni strategic soha sifatida rivojlantirmoqda. Hududiy turistik klasterlar tashkil etilgan. Bundan tashqari infratuzilma rivojlanishi uchun ham tezyurar temir yo'llar, zamonaviy aeroportlar va raqamli to'lov tizimlari joriy qilindi. Bu esa turizm oqimini oshiradi. Xitoy turistlarni jalb qilishda raqamlashtirish siyosatidan ham foydalanadi. Bu orqali turistlarni masofadan turib ham AI, Big Data, online bronlar hamda online xizmatlardan foydalanishini ta'minlab beradi.

Tadqiqot usullari. (Methods) Ushbu maqolada turizm resurslarining samarali foydalanish yo'llarini aniqlash uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

Adabiyotlarni tahlil qilish: XXR turizm statistikasi, rasmiy hukumat hisobotlari va ilmiy maqolalar tahlil qilindi.

Keyingi tahlil (Case study): XXRning eng mashhur turistik hududlari (Beijing, Xi'an, Guilin, Zhangjiajie) bo'yicha resurslardan foydalanish tajribalari o'rganildi.

Ekspert interviyulari: Turizm bo'yicha mutaxassislar va sayyohlik agentliklari vakillari bilan suhbatlar o'tkazildi. Xitoy 2022-yilda sayohat va turizmning YaIMga qo'shgan hissasi bo'yicha dunyoda ikkinchi (814,1 milliard dollar), sayohat va turizmning bandlikka qo'shgan hissasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi (2014-yilda 66 million 86 ming ish o'rni)[2]. To'g'ridan-to'g'ri, bilvosita va qo'zg'atilgan ta'sirga asoslangan turizm 2013-yilda Xitoy yalpi ichki mahsulotining 9,3 foizini tashkil qildi[3]. 2017-yilda Xitoyning sayohat va turizm sektorining umumiy hissasi YaIMning 11 foizini tashkil etdi[4]. 2018-yilda ichki turizm sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qariyb 1,47 trillion dollar hissa qo'shdi[5].

2012-yildan beri xitoylik sayyohlar xalqaro sayyohlik bo'yicha dunyoda eng ko'p mablag' sarflab, dunyo bo'ylab sayohat qilish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. 2016-

yilda jahon xalqaro turizm xarajatlarining 21 foizi yoki 261 milliard dollari shu davlat hissasiga to'g'ri keldi[6]. (Statistikaga Gonkong va Makao, shuningdek, Tayvanning maxsus ma'muriy hududlaridan amalga oshirilgan sayohatlar ham kiradi; 2017-yilda ular „chet elga“ qilingan sayohatlarning 69,5 millionlik ulushini tashkil etdi). 2018-yil holatiga ko'ra, xitoyliklarning atigi 7 foizi pasportga ega edi, shuning uchun Buyuk Britaniya yangiliklaridagi xabarlarga ko'ra, „kelajakda yanada o'sish uchun potensial hayratlanarli darajada yuqori“[7]. 2019-yilda tashrif buyurgan sayyohlar eng yuqori darajaga yetgan bo'lsada, 2020-2022- yillarda pandemiya sababli Turizm sohasi rivojlanishda oraqada qoldi. 2023-yildan boshlab Xitoy turizmdan yana daromad olishni boshladi. 2024-yilda taxminan 46 mln dan ortiq turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 49.1 mln dan oshdi.

Natijalar (Results)

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki:

Tabiiy resurslar: Zhangjiajie milliy bog'i va Guilin tog'lari ekologik turizm va trekking yo'nalishlari orqali samarali ishlatilmoqda. Shu bilan birga, haddan tashqari sayyohlik oqimi ba'zi joylarda yer eroziyasiga va bioxilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda.

Madaniy-historik resurslar: Beijingdagi Buyuk devor, Xi'andagi Terrakota armiya kabi obidalar raqamli texnologiyalar va interaktiv ekskursiyalar yordamida turistlarga yanada qiziqarli taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, transport va boshqaruvdagi muammolar sayyohlik tajribasini cheklash mumkin.

Raqamli turizm: Mobil ilovalar, QR-kodlar va AR/VR texnologiyalari madaniy resurslarni yanada keng auditoriyaga yetkazishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Barqarorlik yo'nalishlari: Ko'p joylarda ekoturizm va mahalliy jamoalar bilan hamkorlik orqali turizmning ijtimoiy va iqtisodiy foydasi oshirilmoqda.

Muhokama (Discussion)

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Xitoy turizm resurslaridan foydalanishda quyidagi samarali strategiyalarni qo'llashi mumkin:

Barqaror boshqaruv: Tabiiy va madaniy resurslarga zarar yetmasligi uchun turist oqimini nazorat qilish, ekologik talablar va turizm standartlarini kuchaytirish.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish: AR, VR va mobil ilovalar yordamida tarixiy obidalarni virtual sayohat shaklida taqdim etish, bu esa ayniqsa pandemiya yoki cheklov davrida sayyohlarni jalb qilish imkonini beradi.

Mahalliy jamoalar bilan integratsiya: Mahalliy hunarmandlar, ovqat va xizmatlar orqali sayyohlik mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy foydani teng taqsimlash, turistik hududlarda tashrif buyuruvchilar sonini me'yorlashtirish, ekologik standartlarni joriy etish va mas'uliyatli turizmni targ'ib qilish orqali uzoq muddatli barqarorlik ta'minlanmoqda[8]. Sayohatni rejalashtirish, transport va mehmonxona xizmatlaridan foydalanish, ekskursiyalarni tanlash jarayonlari raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgani turist tajribasining sifat jihatidan yaxshilanishiga olib kelmoqda[9].

Marketing va brending: XXRning turistik brendi yaratilib, xalqaro auditoriyaga yetkazilishi zarur. Shu bilan birga, ekologik va madaniy barqaror turizm imidji rivojlantirilishi mumkin.

Xulosa (Conclusion)

2025- yilda Xitoyga tashrif buyurgan O'zbekiston fuqarolari haqida batafsil ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. 2025-yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 14 600 nafar O'zbekiston fuqarolari Xitoyga tashrif buyurgan. Tashrif buyurgan fuqarolarning 11 390 nafari turistik maqsadda tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2024- yilga nisbatan 88.5 foiz ga o'sganini isbotlaydi. Bu esa O'zbekiston fuqarolari orasida Xitoyga tashrif buyurish

ishtiyoqini oshirayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda Xitoydan O'zbekistonga tashrif buyurgan fuqarolar soni 74 304 nafarni tashkil etgan bolsa, bu ko'rsatkich 2025-yil yanvar-oktabr oylarida 217 000 nafarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich yil oxirigacha 250 000 kishiga yetkazilishi rejalashtirilmoqda. Xitoyda turizmni rivojlantirish strategiyasi uzoq muddatli rejalashtirishga asoslangan bo'lib, unda hududiy rivojlanish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va turizm xizmatlari sifatini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan[10]. Bu tajriba O'zbekiston sharoitida ham qo'llanilishi mumkin. Xususan, turistik hududlarni ixtisoslashtirish, ya'ni har bir mintaqaning o'ziga xos turizm mahsulotini shakllantirish orqali bozor raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Xitoy Xalq Respublikasidagi turistik resurslar mamlakatning iqtisodiy, madaniy va ekologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, resurslardan samarali foydalanish barqaror boshqaruv, raqamli texnologiyalar, mahalliy jamoalar bilan integratsiya va kuchli marketing strategiyalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu yo'l bilan XXR turizm sohasi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki xalqaro miqyosda mamlakatning madaniy merosini targ'ib qilishi va ekologik barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. "China will be the world's most visited country by 2030". *the Guardian*. 2018-11-06. Retrieved 2021-10-05.
2. "News Article | World Travel & Tourism Council (WTTC)". *wttc.org*. Retrieved 2022-10-18.
3. "Is China attracting foreign visitors?"

4. "The Tourism & Hotel Industry in China - Growth, Trends and Forecasts (2018-2023) - ResearchAndMarkets.com". www.businesswire.com. 2018-09-27. Retrieved 2021-10-05.
5. Ltd, Research and Markets. "Hospitality Industry in China - Growth, Trends, and Forecast (2020 - 2025)". www.researchandmarkets.com. Retrieved 2021-10-05.
6. "China accounts for 21% of international tourism spending - UNWTO". thepienews.com.
7. *Smith, Oliver (11 April 2018)*. "The unstoppable rise of the Chinese traveller – where are they going and what does it mean for overtourism?". *The Telegraph*.
8. Hunan Provincial Government. Policies on Tourism and Accommodation Development in Wulingyuan District; Changsha: 2017.
9. Zhao, Y. (2018). Sustainable tourism development and economic efficiency in China. PhD Dissertation, Sun Yat-sen University.
10. 李明, 张伟 (2017). 中国旅游服务业发展模式. 北京: 中国旅游出版